

UO‘K (UDC, УДК): 81.37:82

**O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” VA AHMAD
LUTFIY QOZONCHINING “QAYNONA” ASARLARINING
QIYOSIY TAHLILI¹⁵**

Rasulmuxamedova Dilfuza Zokirovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jahon adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: Dil.Rasulmuxamedova@1970.uz

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
<p>Ushbu maqolada o‘zbek adibining O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissa-hikoyalar to‘plami va turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchining “Qaynona” romani qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi esa, ikkala asardagi ayol obrazi, xususan, ona va qaynona timsolining milliy-ma’naviy, ijtimoiy-psixologik jihatlarini komparativistik aspektda o‘rganishdan iborat. Ikki adibning ijodiy laboratoriyasi, badiiy uslubi, sujet qurilishi va obrazlar tizimi batafsil qiyosiy aspektda tahlil etiladi. Maqolada turk va o‘zbek adabiyotlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi, turkiy xalqlar dunyoqarashida oilaning tutgan o‘rni, din va ma’naviyat masalalarining badiiy talqini ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ikkala asarda ham ona va qaynona obrazining milliy-ma’naviy qadriyatlar timsoli sifatida gavdalantirilgani, oila va jamiyat munosabatlarining badiiy ifodasida o‘zbek va turk adabiyotlarining mazmuniy yaqinligi aniqlanadi. Maqola adabiyotshunoslik, komparativistika va turkologiya sohasidagi tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.</p>	<p>qiyosiy adabiyotshunoslik, komparativistika, “Dunyoning ishlari”, “Qaynona”, ayol obrazi, qaynona va ona, turkiy xalqlar adabiyoti, badiiy qiyoslash, mikro va makro makon, milliy-ma’naviy qadriyatlar.</p> <p>Received: January 30, 2026 Accepted: February 10, 2026 Available online: May 10, 2026</p>

¹⁵ **For citation:** Rasulmuxamedova D. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari va Ahmad Lutfiy Qozonchining “Qaynona” asarlarining qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11). — B. 168–175.

**COMPARATIVE ANALYSIS OF UTKIR HOSHIMOV’S “THE AFFAIRS
OF THE WORLD” AND AHMAD LUTFI KAZANCHI’S
“THE MOTHER-IN-LAW”**

Rasulmukhamedova Dilfuza Zokirovna

Uzbekistan State World Languages University
Senior Lecturer in Department of World Literature
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Dil.Rasulmuxamedova@1970.uz

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article presents a comprehensive comparative analysis of the Uzbek writer Utkir Hoshimov’s collection of stories “The Affairs of the World” and the Turkish writer Ahmad Lutfi Kazanchi’s novel “The Mother-in-Law” using the comparative-typological method. The primary aim of the study is to examine the female image, particularly the figures of mother and mother-in-law, from national-spiritual and socio-psychological perspectives within a comparativist framework. The creative laboratories, artistic styles, plot structures, and character systems of both authors are thoroughly analyzed and compared. The article also addresses the historical and cultural commonalities of Turkish and Uzbek literatures, the central role of family in the worldview of Turkic peoples, and the artistic interpretation of religious and moral values. The findings confirm that in both works, the images of mother and mother-in-law embody national spiritual values, revealing profound thematic proximity between Uzbek and Turkish literary traditions in the artistic portrayal of family and social relations. The article is of theoretical and practical value for researchers in literary studies, comparative literature, and Turkology.</p>	<p>comparative literary studies, comparativism, “The Affairs of the World”, “The Mother-in-Law”, female image, mother-in-law and mother, Turkic literary tradition, artistic comparison, micro and macro space, national-spiritual values.</p>

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ УТКИРА
ХАШИМОВА «ДЕЛА ЗЕМНЫЕ» И АХМАДА ЛУТФИ КАЗАНЧИ
«СВЕКРОВЬ»**

Расулмухамедова Дилфуза Закировна

Старший преподаватель кафедры мировой литературы
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

E-mail: Dil.Rasulmuxamedova@1970.uz

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В данной статье на основе сравнительно-типологического метода проводится комплексный сравнительный анализ сборника рассказов узбекского писателя Уткира Хашимова «Дела земные» и романа турецкого писателя Ахмада Лутфи Казанчи «Свекровь». Основная цель исследования — изучение женских образов, в частности, образов матери и свекрови, в национально-духовном и социально-психологическом аспектах в рамках компаративистского подхода. В статье производится детальное сопоставление творческой лаборатории, художественного стиля, сюжетной структуры и системы образов обоих авторов. Рассматриваются историко-культурная общность турецкой и узбекской литератур, роль семьи в мировосприятии тюркских народов, а также художественная интерпретация религиозно-нравственных ценностей. В результате проведенного анализа установлено, что в обоих произведениях образы матери и свекрови воплощают национально-духовные ценности, что свидетельствует о глубокой тематической близости узбекской и турецкой литературных традиций в художественном изображении семейных и общественных отношений. Статья представляет теоретическую и практическую ценность для исследователей в области литературоведения, компаративистики и тюркологии.</p>	<p>Сравнительное литературоведение, компаративистика, «Дела земные», «Свекровь», женский образ, свекровь и мать, тюркская литературная традиция, художественное сопоставление, микро- и макропространство, национально-духовные ценности.</p>

KIRISH

Jahon adabiyotshunosligida qiyosiy yoʻnalish mustaqil ilmiy soha sifatida XIX asrning oʻrtalarida Yevropa olimlarining asarlari asosida shakllana boshladi. Bugungi kunda esa qiyosiy adabiyotshunoslik, xususan komparativistika turli xalqlar adabiyotlari oʻrtasidagi mushtarak jihatlar, oʻzaro taʼsir va farqli xususiyatlarni ilmiy asosda tekshirib, baholash imkonini beruvchi eng taraqqiy etgan fanlardan biriga aylandi. Qiyosiy metodning kuchi shundaki, u bitta adabiy hodisani ikki yoki undan ortiq madaniy-tarixiy kontekstda bir vaqtda koʻrib chiqish orqali yangi maʼno qatlamlarini kashf etishga yordam beradi (Xalliyeva G., 2020, 4–6).

Oʻzbek va turk xalqlari bir-biriga qardosh tillarda yaʼni, turkiy til oilasiga mansub tillarda soʻzlashadi va ular oʻrtasida tarixan yaqin madaniy aloqalar mavjud. Ikkala xalqning folklorik anʼanalari, diniy-falsafiy dunyoqarashi, oilaviy munosabatlar tizimi va ayol obrazini badiiy talqin etish borasidagi umumiy jihatlar keng ilmiy tadqiqot uchun boy material taqdim etadi. Shunday boʻlsa-da, ikki adabiyotning xuddi shu qatlamiga oid maxsus qiyosiy tadqiqotlar hali ham yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mazkur maqolada oʻzbek nasrining yirik vakili Oʻtkir Hoshimov (1941–2013) tomonidan yaratilgan “Dunyoning ishlari” qissa-hikoyalari toʻplami va turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchi (1936–2016) qalamiga mansub “Qaynona” romani qiyosiy-tipologik metod asosida tahlil etiladi. Ikkala asar ham milliy adabiyotlarida alohida oʻringa ega boʻlib, ularda oila, maʼnaviyat, din, ona mehri va qaynona timsoli markaziy mavzu sifatida koʻtariladi. Bunday umumiy mavzular ikkala adabiyotni bir-biriga yaqinlashtiradi va qiyosiy tahlilni nazariy jihatdan asosli qiladi.

Jahon adabiyotshunoslik ilmidagi V. Jirmunskiy, N. Konrad, D. Dyurishin, A. Dima, I. Neupokoyeva, V.V. Vinogradov kabi olimlarning tadqiqotlarida qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalari puxta yoritilgan (Joʻraqulov U., Xalliyeva G., Qosimov A., 2025, 11). Oʻzbek adabiyotshunosligida esa N. Komilov, F. Sulaymonova, B. Sarimsoqov, A. Qosimov, S. Meliyev, R. Abdullayeva, G. Xalliyeva kabi olimlar milliy adabiyotimizning xorijiy adabiyotlar bilan oʻzaro aloqalarini muvaffaqiyatli oʻrganishgan. Yevropa adabiyotidagi ayol obrazi talqini borasida oʻzbek olimlaridan N. Muhammedova, X. Muhammedova va U. Fayzullayevalarning tadqiqotlari alohida eʼtiborga loyiq.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, turkiy dunyoning ikki yirik adabiyotida oʻzbek va turk adabiyotlarida ayol obrazi, xususan qaynona va ona timsoli, milliy-maʼnaviy qadriyatlar prizmasidan qiyosiy aspektida deyarli tadqiq etilmagan. Shu sababdan ushbu tadqiqot yangi ilmiy bilimlar bazasini boyitishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

O‘tkir Hoshimov o‘zbek nasrining eng sevimli vakili, insonparvar yozuvchi. U 1941-yilda Toshkent shahrining Do‘mirobod mahallasida tavallud topgan. Hoshimov o‘zbek xalqining ruhiyatini, qadriyatlarini, turmush tarzini teran bilgan va ularni badiiy jihatdan yuksak darajada aks ettirgan ijodkor. Uning “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlari nafaqat o‘zbek, balki jahon kitobxonlari qalbidan mustahkam joy olgan. Adib nasrida hayotning oddiy, kundalik ko‘rinishlari ulkan falsafiy mazmun bilan boyitilgan holda tasvirlanadi; bu esa uning badiiy uslubining eng yorqin xususiyatidir.

Ahmad Lutfiy Qozonchi 1936-yili Turkiyaning Churum tumanida tavallud topgan. U Turkiyada ilohiyot va tarix o‘qigan, umrining ko‘p qismini diniy va tarixiy adabiyotga bag‘ishlagan. Hazrat Pay‘g‘ambar (s.a.v.) va sahobalari hayotiga bag‘ishlangan yigirmadan ortiq asarning muallifi bo‘lgan Qozonchi ijodida romanlar ham katta o‘rin tutadi: “Saodat asri qissalari”, “O‘gay ona”, “Bir vijdon uyg‘onur” va “Qaynona” asarlari shular jumlasidandir. Yozuvchining barcha romanlarida milliy-diniy qadriyatlar, oilaviy birdamlik, axloqiy poklik asosiy g‘oyaviy o‘q vazifasini o‘taydi.

Ikkala adibning hayot yo‘llarini qiyoslasak, qiziqarli mushtarakliklar namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ikkovlari ham o‘z xalqining ma‘naviy merosini chuqur his etgan va ijodida uni asragan yozuvchilardir. Ikkinchidan, ular jamiyatdagi axloqiy tanazzulga, insoniy munosabatlarning yo‘qolib borishiga nisbatan ijodlari orqali keskin e‘tiroz bildirganlar. Uchinchidan, ikkala adib ham diniy-falsafiy dunyoqarashni hayot bilan organik bog‘liq holda tasvirlaganlar. Hoshimov uchun o‘zbek mahallasi va uning ma‘naviy muhiti qanchalik muhim bo‘lsa, Qozonchi uchun ham anadolu (Anatolia) qishloqlarining iliq, diniy muhiti shunchalik muhimdir.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” to‘plami bir nechta o‘zaro bog‘liq hikoya va qissalardan tashkil topgan: “Gilampaypoq”, “Otinoyi”, “O‘ris bolaning onasi”, “Iltijo” va boshqalar. To‘plam shartli ravishda birlashgan, ammo har bir hikoya mustaqil badiiy yaxlitlikni tashkil etadi. Kompozitsion jihatdan Hoshimov oddiy voqealarni — bir kecha-kunduz, bir suhbat, bir xat — markazga qo‘yib, shu orqali ulkan insoniy haqiqatlarni ochib beradi. Asarlar tili sodda, ammo sersaboq; dialoglar jonli va milliy kolorit bilan to‘yingan.

Ahmad Lutfiy Qozonchining “Qaynona” asari klassik roman tuzilmasiga ega: dastlab belgilar va sharoitlar tanishtirilib, so‘ngra dramatik ziddiyat avjiga chiqadi va nihoyat yechimga erishiladi. Romanda Munavvarxonim — bosh qahramon sifatida har tomonlama ishonchli va ko‘p qatlamli portret tarzida chizilgan. Qozonchi romanning sujetini yozuvchi Tohir Malik tarjimasidagi so‘z boshida ta’kidlaganidek, an’anaviy qaynona stereotipini butunlay ag‘darib tashlash

maqsadida qurilgan (Ahmad Lutfiy Qozonchi, 2004, 3). Bu ikki asarning sujet qurilishida muhim farq: Hoshimov epik kenglik va ko'p ovozlilik (poliphoniya) orqali ish yuritsa, Qozonchi bitta qahramonning psixologik rivojiga diqqatni jamlaydi.

Shunga qaramasdan, ikkala asarning ham kompozitsion qurilishida bir muhim umumiy printsipl ko'zga tashlanadi: muallif qahramon ruhiy holatini voqealar tasviridan ustun qo'yadi. Boshqacha aytganda, tashqi dramatik to'qnashuvlar ichki psixologik jarayonlar uchun fon vazifasini o'taydi. Aynan shu xususiyat ikkala asarni psixologik proza namunasi sifatida belgilaydi.

Adabiyotshunoslikda badiiy obraz shaxsning yaqqol va o'ziga xos individualligini umumlashtirish orqali yuzaga keltiriladi (Boboyev T., 2003, 55). Hoshimovning "Dunyoning ishlari" to'plamidagi Qumri aya aynan shunday umumlashtirilgan milliy ona obrazidir. U mahallada hammaga hurmatli, og'irini yengil qiladigan, og'izda doim duo, qo'lda doim mehnat bilan yashaydigan ayol. Qumri aya o'g'lidan kelgan maktublarni avaylab asrab, qo'shnilariga ko'rsatadi; shahardagi olim o'g'lidan faxr tuyadi; kelinining tannoqliklariga ham parvo qilmasdan sevgisini izhor etaveradi. Bu xarakterdagi bardoshlilik va bag'rikenglik o'zbek xalqining ona haqidagi tasavvurlarini to'liq aks ettiradi.

Munavvarxonim esa Qozonchi romanida kitobxon kutgan an'anaviy zolim, noinsof qaynona stereotipidan mutlaqo farq qiladi. U aqlli, oqila, diydori ochiq, diyonatli ayol. Uni na haqorat, na zulm bu yo'ldan chalg'ita olmaydi. Munavvarxonim keliniga nafaqat qaynona, balki ma'naviy murabbiya sifatida ham munosabatda bo'ladi. Asar boshidayoq yozuvchi qaynona ham ona bo'la olishini isbot etadi: Munavvarxonim kelinini tug'ishida uning yonida bo'lib, uni qo'llab-quvvatlaydi. Bu epizod romanning g'oyaviy markazini tashkil etadi.

Ikkala qahramon Qumri aya va Munavvarxonim turli millat adabiyotida, turli syujet va kompozitsiya doirasida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, ular bir umumiy tipologik xususiyat bilan birlashadi: ikkovlari ham sevgini shartli emas, balki so'zsiz (beqiyos) tarzda beradi. Bu tasvirda turkiy xalqlar uchun universal bo'lgan "ona — mehr va qurbon bo'lish timsoli" arxetipi namoyon bo'ladi. Bunday tipologik yaqinlik ikki adibning bir-biriga ta'sir etmagan, lekin bir madaniy ildizdan oziqlanib ijod qilgani natijasidir bu esa qiyosiy-tipologik tahlilning eng asosiy xulosalaridan biri hisoblanadi.

Hoshimov va Qozonchi ikkovlari ham ijodida dinga, diniy-axloqiy qadriyatlarga katta e'tibor qaratadi. Hoshimovning qissalarida "Otinoyi" hikoyasidagi mazlum va diyonatli Otinoyi obrazi orqali diniy ma'naviyat va sabr-toqat ulug'lanadi. Yozuvchi insonni ruhiy sinov vaziyatiga qo'yib, uning axloqiy mohiyatini ochib beradi. Qozonchi uchun ham din hayot tarzi sifatida talqin etiladi:

Munavvarxonimning har bir harakati Islom axloqining konkret namoyon bo‘lishidir sabr, kechirish, xayrixohlik, mehribon muomala.

Jamiyat tanqidi nuqtayi nazaridan ham ikkala adib o‘xshash pozitsiyada turadi. Hoshimov sovet davri va mustaqillik yillarining jamiyatida insoniy munosabatlarning yo‘qolib, moddiy manfaatning ustuvorlik qilayotganini nozik kinoya va tasvir orqali ko‘rsatadi. Qozonchi esa Turk jamiyatida an’anaviy oilaviy qadriyatlarning zamona bosimi ostida sinovdan o‘tayotganini aks ettiradi. Ikki yozuvchining tashvishlanayotgan asosiy masala bir — ma’naviy qadriyatlar moddiy manfaatlilikka qurbon bo‘lmasligi kerak. Bu esa ikkala asarning g‘oyaviy mushtarakligini yanada mustahkamlaydi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda makro makon tushunchasi ikki alohida milliy adabiyotning umumiy jahon adabiyoti maydonidagi munosabatini, mikro makon esa ikkala adabiyot doirasidagi yaqin ijodkorlar yoki asarlar o‘rtasidagi munosabatni anglatadi. Ushbu tadqiqot kontekstida o‘zbek va turk adabiyotlari o‘rtasidagi aloqa makro makon doirasiga kiradi, Hoshimov va Qozonchi ijodining o‘zaro qiyosi esa mikro makon tushunchasiga to‘liq mos keladi.

Har ikkala asardagi makon tasviriga e’tibor qaratsak, qiziqarli farqlar ko‘rinadi. Hoshimov asarlarida Toshkent mahallasi ko‘cha, hovli, guzar kabilar yozuvchi uchun nafaqat sahnani, balki milliy xarakterni shakllantiruvchi muhitni anglatadi. Mahalla esa bu insonlarning bir-biri bilan uyg‘un yashaydigan, birining muammosi boshqasining dardi bo‘lgan ijtimoiy makrodir. Qozonchi uchun esa oila ichi uy, oshxona, yashaydigan xona bosh makon bo‘lib, unda oilaviy munosabatlarning barcha nozikliklari mikro darajada ifoda etiladi. Bu farqlilik ikki adibning ijodiy usulini yanada aniqroq belgilaydi.

XULOSA

Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” to‘plami va Ahmad Lutfiy Qozonchining “Qaynona” romani har xil milliy adabiyot namunalari bo‘lishiga qaramasdan, chuqur mazmuniy yaqinlikka ega. Bu yaqinlik tasodifiy emas — u turkiy xalqlarning umumiy madaniy, tarixiy va axloqiy ildizlaridan suvlanadi.

Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga kelishga imkon berdi: birinchidan, ikkala asarda ham ona va qaynona obrazi an’anaviy stereotiplardan ozod holda, milliy ma’naviyatning timsoli sifatida yuksaklikda tasvirlanadi; ikkinchidan, ikkala adib ham psixologik portret yaratishda yuqori badiiy mahorat ko‘rsatib, qahramonlarining ichki dunyosini teran tasvirlaydi; uchinchidan, din va axloqiy qadriyatlar ikkala asarda ham qahramonlar xarakterini belgilovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi; to‘rtinchidan, jamiyatdagi axloqiy muammolarga nisbatan ikkala adibning pozitsiyasi bir-biriga juda yaqin — ular moddiy manfaatlilikka qarshi insoniy mehr va diyonatni qo‘yadi.

XX–XXI asr turk va o‘zbek romanlarining qiyosiy aspektda to‘liq tadqiq etilmaganligi bu sohada qilish kerak bo‘lgan ishlar hali ko‘pligini anglatadi. Ushbu maqola o‘zbek va turk adabiyotlari o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotlar uchun yangi poydevor yaratishga va muloqot maydonini kengaytirishga xizmat qiladi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik. — T.: “Akademnashr”, 2020. — 180 b.
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi. “Qaynona”. — Toshkent: “Movrunahir”, 2004. — 256 b.
3. Jo‘raqulov U., Xalliyeva G., Qosimov A. Qiyosiy adabiyotshunoslik. — T., 2025. — 312 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — T.: “O‘zbekiston”, 2003. — 304 b.
5. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. — Toshkent: “Sharq”, 2010. — 220 b.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: “Fan”, 2018. — B. 223.
7. Hoshimov O. Dunyoning ishlari. — Toshkent: “Sharq”, 2005. — 320 b.
8. Dyurishin D. Qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasi. — Moskva: “Progress”, 1979. — 318 b.

REFERENCES

1. Xalliyeva G. (2020). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Tashkent: Akademnashr.
2. Ahmad Lutfiy Qozonchi. (2004). Qaynona. Tashkent: Movrunahir.
3. Jo‘raqulov U., Xalliyeva G., Qosimov A. (2025). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Tashkent.
4. Boboyev T. (2003). Adabiyotshunoslik asoslari. Tashkent: O‘zbekiston.
5. Karimov H. (2010). Istiqlol davri adabiyoti. Tashkent: Sharq.
6. Quronov D. (2018). Adabiyotshunoslikka kirish. Tashkent: Fan. P. 223.
7. Hoshimov O. (2005). Dunyoning ishlari. Tashkent: Sharq.
8. Dyurishin D. (1979). Theory of Comparative Literary Studies. Moscow: Progress.